



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari 98 Umurov Sharif Rajabovich	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash 102 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта 106 Панжиева Назокат Нормаматовна	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации 111 Тураева Дилфуза Даминовна	111

INKLYUZIV TA'LIM VA GOSPITAL PEDAGOGIKANI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING TASHKILOTCHILIK MADANIYATI: NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLAR

Djabborov Ma'sud Bahriddinovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Pedagogika" kafedrasini o'qituvchisi

Arolova Zarina Lochin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim va gospital pedagogika sharoitida pedagogning tashkilotchilik madaniyati ko'p qirrali ilmiy-nazariy hodisa sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida tashkilotchilik madaniyatining konseptual tuzilishi beshta o'zaro bog'liq komponent – boshqaruv, kommunikativ, metodik, psixologik sezgirlik va reflektiv yondashuv komponentlari asosida ilmiy tavsiflanadi. L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi, U. Bronfenbrennning ekologik tizimlar modeli, M. Ainscow va T. Booth inklyuziya indeksi, shuningdek UNESCO hamda UNICEF xalqaro ta'lim strategiyalari asosida pedagogning tashkilotchilik madaniyatining nazariy modeli taklif etiladi. Inklyuziv muhitda individual yondashuvni ta'minlash, gospital sharoitida ta'limni tibbiy rehabilitatsiya jarayoni bilan uyg'unlashtirish, ko'p mutaxassisli hamkorlikni muvofiqlashtirish va raqamli ta'lim texnologiyalaridan (adaptive learning, TPACK modeli, UDL tamoyillari) samarali foydalanish masalalari keng va chuqur yoritiladi. Xulosalar asosida pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, gospital pedagogika, tashkilotchilik madaniyati, pedagogik kompetensiya, boshqaruv komponenti, kommunikativ madaniyat, metodik moslashuvchanlik, psixologik sezgirlik, reflektiv amaliyotchi, UDL, TPACK, yaqin rivojlanish zonasi, ekologik tizimlar modeli.

Abstract: This article investigates the organizational culture of a teacher as a multidimensional scientific-theoretical phenomenon within the contexts of inclusive education and hospital pedagogy. The study systematically characterizes the conceptual architecture of organizational culture through five interrelated components: managerial, communicative, methodological, psychological sensitivity, and reflective. Drawing on Vygotsky's zone of proximal development, Bronfenbrenner's ecological systems theory, the Booth and Ainscow Index for Inclusion, and international educational frameworks of UNESCO and UNICEF, a theoretical model of teacher organizational culture is proposed. The article elaborates on ensuring individualized instruction in inclusive environments, integrating teaching with medical rehabilitation in hospital settings, coordinating multiprofessional collaboration, and leveraging digital educational technologies (adaptive learning, TPACK, UDL principles). Evidence-based practical recommendations for teacher preparation and continuing professional development are provided.

Key words: inclusive education, hospital pedagogy, organizational culture, pedagogical competence, managerial component, communicative culture, methodological flexibility, psychological sensitivity, reflective practitioner, UDL, TPACK, zone of proximal development, ecological systems theory.



Аннотация: В настоящей статье организационная культура педагога исследуется как многогранный научно-теоретический феномен в контексте инклюзивного образования и госпитальной педагогики. В рамках исследования концептуальная структура организационной культуры систематически описывается через пять взаимосвязанных компонентов: управленческий, коммуникативный, методический, психологической чуткости и рефлексивный. На основе теории зоны ближайшего развития Л. С. Выготского, экологической системной модели У. Бронфенбренера, индекса инклюзии М. Эйнскоу и Т. Бута, а также международных образовательных стратегий ЮНЕСКО и ЮНИСЕФ предлагается теоретическая модель организационной культуры педагога. Подробно рассматриваются вопросы обеспечения индивидуального подхода в инклюзивной среде, интеграции обучения с медицинской реабилитацией в условиях госпитальной педагогики, координации многопрофессионального взаимодействия и эффективного применения цифровых образовательных технологий. Разработаны научно обоснованные практические рекомендации по подготовке и повышению квалификации педагогов.

Ключевые слова: инклюзивное образование, госпитальная педагогика, организационная культура, педагогическая компетентность, управленческий компонент, коммуникативная культура, методическая гибкость, психологическая чуткость, рефлексивная практика, УДЛ, ТПАК, зона ближайшего развития, экологическая системная модель.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida ta'lim tizimi tubdan yangilanib, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan yondashuv tobora ustuvorlik kasb etmoqda. Barcha bolalarning - imkoniyatlaridan, jismoniy va aqliy salomatlik holatidan qat'i nazar - sifatli ta'lim olish huquqini kafolatlovchi inklyuziv ta'lim konsepsiyasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham ega. Xalqaro hamjamiyat ushbu tamoyilni bir qator asosiy hujjatlarda - 1994-yilgi Salamanka deklaratsiyasi, 2006-yilgi BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va 2015-yilgi SDG-4 maqsadi doirasida - mustahkamlagan ^[7, 8, 12].

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son¹ (2020), "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun (2020) va "Yangi O'zbekiston" rivojlanish strategiyasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy ta'lim muhitiga integratsiyasi uchun normativ-huquqiy asos yaratmoqda ^[1]. Biroq huquqiy bazaning mavjudligi o'z-o'zicha yetarli emas - inklyuziv ta'limning amaliy muvaffaqiyati pedagogning kasbiy tayyorgarligi, qiymat yo'nalishlari va tashkiliy madaniyatiga bevosita bog'liqdir.

Pedagogning tashkilotchilik madaniyati - bu oddiy ma'muriy ko'nikmalar to'plami emas. Bu - ta'lim jarayonini insonparvarlik, moslashuvchanlik, hamkorlik va doimiy refleksiya tamoyillari asosida rejalashtirish, boshqarish va takomillashtirish qobiliyatlarining yaxlit tizimi. Inklyuziv muhitda turli imkoniyat, ehtiyoj va o'rganish uslubiga ega o'quvchilar bilan ishlash pedagogdan ushbu madaniyatning barcha komponentlarini bir vaqtda faollashtira olishni taqozo etadi. Shu sababli tashkilotchilik madaniyatining ilmiy-nazariy tahlili nafaqat akademik, balki amaliy jihatdan ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Gospital pedagogika inklyuziv ta'limning alohida va nozik shakli sifatida tibbiy muassasalarda davolanayotgan bolalarning ta'lim huquqini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu sohada pedagog an'anaviy bilim beruvchi roldan tashqariga chiqib, o'quvchining tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyasiga faol hissa qo'shuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Yevropa hospital ta'lim hamjamiyati belgilaganidek, kasalxona muhitida ta'limning uzluksizligi bolaning sog'liqqa qaytish jarayonini ijobiy tarzda tezlashtiradi ^[17, 18].

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi va dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: xalqaro nazariy modellar sintezi asosida tashkilotchilik madaniyatining besh komponentli tizimli modeli taklif etiladi; gospital pedagogikaning o'ziga xos tashkiliy talablari birinchi marta sistematik tahlil qilinadi; raqamli texnologiyalarning tashkilotchilik madaniyatidagi roli zamonaviy TPACK va UDL konseptlari asosida asoslanadi; O'zbek ta'lim tizimiga nisbatan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogning tashkilotchilik madaniyati masalasi turli pedagogik maktablar va ilmiy yo'nalishlarning kumulyativ merosiga tayanadi. Ushbu konsepsiyaning nazariy ildizlari bir nechta fundamental ilmiy manbalardan oziqlanadi.

L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (ZBR) nazariyasi inklyuziv ta'limning eng qudratli nazariy asoslaridan birini tashkil etadi ^[9]. Mazkur nazariyaga ko'ra, bolaning hozirgi mustaqil imkoniyatlari bilan malakali pedagogik rahbarlik yordamida erishish mumkin bo'lgan salohiyat o'rtasidagi potensial masofa - bu aynan pedagogik aralashuv uchun optimal maydondir. Inklyuziv ta'limda ZBR har bir o'quvchi uchun individual ta'lim

1 <https://lex.uz/docs/-5044711>

traektoriyasini loyihalashning asosidir, tashkilotchilik madaniyati esa bu traektoriyani samarali amalga oshirishning institutsional mexanizmi vazifasini o'taydi.

Uri Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi (Bioecological Model, 1979/2005) bolaning rivojlanishini o'zaro ichma-ich joylashgan tizimlar - mikrodara (oila, sinf muhiti), mezodara (muassasalar o'rtasidagi aloqa), ekzodara (mahalliy jamiyat va ma'muriyat) va makrodara (madaniyat, qonunchilik, iqtisodiyot) – o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir sifatida tushuntiradi [10]. Bu model pedagog uchun ayniqsa muhim: inklyuziv va gospital ta'limda pedagog faqat sinf darajasida emas, balki ushbu barcha darajalarda faol ishtirok etishi, ularni muvofiqlashtirishi va ularga adaptatsiya bo'lishi zarur. Aynan shu holat tashkilotchilik madaniyatini tizimli ko'p darajali kompetensiya sifatida belgilaydi.

Mel Ainscow va Tony Booth tomonidan ishlab chiqilgan "Inklyuziya indeksi" (Index for Inclusion, 2002, 3-nashr 2011) inklyuziv ta'limni uch o'zaro bog'liq o'lcham - inklyuziv madaniyat yaratish, inklyuziv siyosatni ishlab chiqish va inklyuziv amaliyotni rivojlantirish - nuqtai nazaridan baholaydi [11]. Ushbu model pedagogning tashkilotchilik madaniyatini muassasaning umumiy inklyuziv muhitini shakllantirishning katalitik omili sifatida ko'radi. Ayniqsa, "inklyuziv madaniyat" o'lchami pedagogning qadriyatlarini, munosabatlari va jamoa bilan hamkorlik uslubi bilan bevosita bog'liqdir.

Universal ta'lim loyihasi (Universal Design for Learning - UDL, CAST, 2018) ta'lim muhitini dastlabki bosqichdan barcha o'quvchilar uchun imkoniyatli qilib loyihalash prinsipini ilgari suradi [15]. UDL uchta asosiy prinsipga - ishtirokning ko'p xilligi, ko'rsatishning ko'p xilligi va ifodalanishning ko'p xilligi - asoslanadi. Pedagogning metodik tayyorgarligi va tashkiliy madaniyati ushbu tamoyillarni kundalik amaliyotda tatbiq etishning asosiy sharti hisoblanadi.

Texnologik pedagogik mazmun bilimlari modeli (TPACK, Mishra & Koehler, 2006) zamonaviy pedagog uchun texnologik (T), pedagogik (P) va mazmuniy (CK) bilimlarning kesishma sohasida joylashgan noyob kompetensiyaning muhimligini asoslaydi [21]. Inklyuziv va gospital ta'lim muhitida ushbu model alohida ahamiyat kasb etadi, zero moslashuvchan ta'lim platformalarini va raqamli vositalarni samarali qo'llash uchun pedagog uchala bilim turini bir vaqtda faollashtira olishi zarur.

O'zbek pedagogika fanida ham ushbu yo'nalish ilmiy jihatdan faol o'rganilmoqda. N. A. Muslimov innovatsion ta'lim texnologiyalarining kasbiy kompetensiya shakllanishidagi rolini fundamental darajada tahlil etgan [4].

N. N. Azizxo'jayeva pedagogik mahoratni texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish masalalarida noyob nazariy meros yaratgan [5].

Mavlonova va hammuallif tadqiqotchilarning pedagogika nazariyasiga bag'ishlangan asari ham tashkilotchilik madaniyatining kasbiy rivojlanishdagi rolini keng yoritadi [3].

Gospital pedagogika bo'yicha xalqaro ilmiy manbalar (Barrera & Ficarra, 2015; Mulderij, 2000; Shiu, 2001) bu sohadagi pedagogning rolini "tibbiy-ta'lim ko'prik quruvchisi" metaforasi orqali ifodalaydi [14]. Bu metafora pedagog nafaqat akademik bilim uzatuvchi, balki bolaning kasalxona muhitidagi total hayotiy integratsiyasini – ijtimoiy, emotsional va kognitiv – ta'minlovchi asosiy aktor ekanligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy metodologiyaga asoslangan bo'lib, quyidagi to'rtta uslubiy yondashuvni o'z ichiga oladi.

Tizimli yondashuv doirasida pedagogning tashkilotchilik madaniyati yaxlit, o'zaro bog'liq komponentlardan iborat murakkab sistema sifatida tahlil etiladi. Ushbu yondashuv Bertalanffy (1968) umumiy tizimlar nazariyasi va Bronfenbrenner ekologik modeli tamoyillariga tayanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatning tashkiliy jihatlari aniq, o'lchash mumkin bo'lgan kompetensiyalar orqali tavsiflanadi. Ushbu yondashuv Yevropada keng qo'llaniladigan European Qualifications Framework (EQF) va O'zbekiston davlat ta'lim standartlari bilan uyg'unidir.

Ekologik yondashuv Bronfenbrenner modeli asosida ta'lim muhitini ko'p darajali tizim sifatida ko'rib chiqishni va pedagogning tashkiliy faoliyatini ushbu tizimning barcha darajalarida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv Vygotskiy va A. N. Leontyev an'analari asosida pedagogik faoliyatni maqsad, vosita va natija birligida ko'rishni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv tashkilotchilik madaniyatini statik xususiyat sifatida emas, balki dinamik, amaliyotda namoyon bo'luvchi faoliyat sifatida ko'radi.

Ilmiy manbalar bazasini shakllantirish uchun quyidagi mezonlarga amal qilindi:

- xalqaro davriy nashrlar uchun – Web of Science va Scopus indekslarida ro'yxatdan o'tgan jurnallardagi maqolalar (2000–2024);
- mahalliy manbalar uchun - O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) tomonidan tan olingan nashrlar;
- normativ-huquqiy manbalar uchun – rasmiy davlat hujjatlari va xalqaro tashkilotlar materiallari.



TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan keng qamrovli tahlil asosida pedagogning tashkilotchilik madaniyatining quyidagi ta'rifi shakllantirildi: bu - pedagogning ta'lim jarayonini insonparvarlik qadriyatlarini, ilmiy metodologiya va refleksiv amaliyot asosida rejalashtirish, adaptatsiya qilish, muvofiqlashtirish va takomillashtirish qobiliyatlarining yaxlit kasbiy-axloqiy tizimi bo'lib, inklyuziv muhitdagi turli xil ehtiyojlar yoki gospital sharoitdagi murakkab psixo-tibbiy omillar sharoitida ham ta'limning samaradorligi, uzluksizligi va insonparvarlik mohiyatini ta'minlaydi.

Ushbu ta'rif metodologik jihatdan muhim: u tashkilotchilik madaniyatini "dars tashkil etish" kabi texnik ko'nikmadan tubdan farq qiluvchi, pedagogning qadriyat tizimi bilan uzviy bog'liq kasbiy hodisa sifatida belgilaydi. Bu yondashuv Schön (1983) refleksiv amaliyotchiligi va Dewey (1910) refleksiv fikrlash nazariyalari bilan mutanosib ^[16].

Tashkilotchilik madaniyatining besh komponentli modeli

Inklyuziv va gospital ta'lim kontekstini chuqur hisobga olgan holda, pedagogning tashkilotchilik madaniyatining besh komponentli nazariy modeli taklif etiladi:

Boshqaruv komponenti - ta'lim jarayonini strategik va operativ rejalashtirish, resurslar hamda vaqtni optimal taqsimlash, ta'lim maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishishni monitoring qilish qobiliyatlarini qamrab oladi. Inklyuziv ta'limda bu komponent Individual Ta'lim Rejalari (ITR) ishlab chiqish, ularni o'quvchi holati o'zgarishiga mos yangilab borish va ITR bajarilishini jamoaviy monitoring qilishda namoyon bo'ladi. Gospital sharoitda boshqaruv komponenti davolanish rejimi bilan ta'lim jadvalini sinxronlashtirish, bemorning kunlik holati asosida ta'lim yuklamasini dinamik moslashtirishni o'z ichiga oladi. Xalqaro tadqiqotlar (Mitchell, 2014) shuni ko'rsatadiki, samarali ITR ishlab chiqish va tatbiq etish inklyuziv ta'limdagi akademik natijalarni sezilarli yaxshilashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi ^[13].

Kommunikativ komponent - pedagog va o'quvchi, ota-ona, psixolog, logoped, maxsus ta'lim mutaxassisi, tibbiyot xodimlari hamda ma'muriyat o'rtasidagi samarali ko'p yo'nalishli professional muloqot madaniyatini bildiradi. Bronfenbrenner modeli asosida bu komponent faqat sinf mikrotizimida emas, barcha darajalarda – oiladan boshlab davlat siyosatigacha – namoyon bo'lishi zarur ^[10]. Friend va Cook (2017) o'tkazgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, pedagogning kommunikativ kompetensiyasi ko'p mutaxassisli jamoada hamkorlik sifatini belgilovchi eng muhim omildir [20].

Metodik komponent - ta'lim mazmunini, usullarini, materiallarini va baholash shakllarini har bir o'quvchining o'rganish uslubi, kognitiv imkoniyati va joriy ehtiyojlariga muvofiq adaptatsiya qilish mahoratini ifodalaydi. UDL tamoyillari asosida muvaffaqiyatli inklyuziv pedagog ishtiroki, ko'rsatishi va ifodalanishining bir nechta usullarini qo'llaydi ^[15]. Gospital sharoitda metodik komponent qisqa, intensiv va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi mashg'ulotlarni loyihalash, o'quv materiallarini o'quvchining jismoniy holati hisobga olingan holda tanlash ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Psixologik sezgirlik komponenti - pedagogning o'quvchining hissiy holati, qo'rquvi, umidsizligi yoki aksincha ilhomi va shavqini sezish, ularni anglash va pedagogik yondashuvini shunga mos tez moslashtirishini anglatadi. Vaillancourt va Hymel (2006) tadqiqotlari o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional farovonligi kognitiv o'rganish samaradorligi bilan kuchli ijobiy korrelyatsiya qilishini isbotlagan. Gospital sharoitda kasallik, og'riq, tibbiy protseduralardan oldingi tashvish va tengdoshlardan uzoqlashuv psixologik stress manbalari sifatida ta'limga to'siqlar yaratadi. Pedagog bu omillarni hisobga olgan holda emotsional xavfsiz ta'lim muhitini yaratishi - uning psixologik sezgirlik komponentining eng muhim ifodasi hisoblanadi.

Refleksiv komponent - pedagogning o'z kasbiy faoliyatini tizimli tanqidiy baholash, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz metodlarni tahlil qilish, sabablarini aniqlash va strategiyani yangilash qobiliyatini ifodalaydi. Schön (1983) "amaliyotda aks ettirish" (reflection-in-action) va "amaliyot haqida aks ettirish" (reflection-on-action) tushunchalari pedagog kasbiy rivojlanishining ikki muhim shaklini belgilaydi ^[16]. Inklyuziv muhitda doimiy yangilanib turuvchi ehtiyojlar va gospital sharoitda har bir bolaning noyob tibbiy-psixologik holati refleksiv yondashuvni an'anaviy ta'limga qaraganda ancha muhimroq qiladi.

Gospital pedagogikada tashkilotchilik madaniyatining murakkab jihatlarini

Gospital pedagogika - bu inklyuziv ta'limning eng ko'p jihatdan hali o'rganilmagan va nozik yo'nalishi bo'lib, unda pedagogik jarayon tibbiy muhitning o'ziga xos talablari asosida quriladi. Yevropa Kasalxona va Sog'liqni Saqlash Federatsiyasi (HOPE) hujjatiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida har yili kasalxonalarda o'qish imkoniyatidan mahrum bo'ladigan bolalar soni millionlarni tashkil etadi va bu sog'lom bolalar bilan ta'lim tengsizligini kuchaytiradi ^[17].

Gospital pedagogikada tashkilotchilik madaniyatiga qo'yiladigan talablar uch strategik yo'nalishda shakllanadi.

Birinchi yo'nalish - tibbiy-pedagogik integratsiya: gospital pedagog davolanish jadvalini, tibbiy aralashuvlar vaqtini, dori-darmonlarning kognitiv ta'sirini va bolaning kun tartibidagi energiya resurslari taqsimotini bilishi va hisobga olishi zarur. WHO biopsixoiijtimoiy salomatlik modeli asosida ta'lim - bu nafaqat akademik faoliyat, balki reabilitatsiyaning tarkibiy qismidir ^[18]. Shu sababli gospital pedagog tibbiy xodimlar bilan professional tilda muloqot qila olishi - tashkilotchilik madaniyatining kommunikativ komponentining eng yuqori darajasini talab etadi.

Ikkinchi yo'nalish – psixo-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: kasalxona muhiti bolaning tengdoshlaridan izolyatsiyasini, rol va identitet inqirozini hamda kelajak to'g'risidagi tashvishini kuchaytiradi. Mulderij (2000) tadqiqotlariga ko'ra, og'ir kasalliklardan aziyat chekayotgan bolalar uchun ta'lim - bu nafaqat bilim olish, balki "normal hayot" bilan psixologik aloqani saqlab qolish vositasidir. Gospital pedagog ushbu ijtimoiy-emotsional funksiyani anglab, ta'lim jarayonida bolaning o'z-o'ziga hurmatini qayta qurish va kelajakka yo'naltirishga erishishi - uning insonparvarlik madaniyatining noyob ifodasi hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish - texnologik uzluksizlik: COVID-19 pandemiyasi keyingi global tadqiqotlar (Reimers et al., 2020) shuni ko'rsatdiki, uzoq muddatli kasalxona ta'limida raqamli platformalar va masofaviy ta'lim vositalari uzluksiz ta'limni ta'minlashning eng ishonchli mexanizmidir ^[19]. O'quvchining sinf jamoasi bilan videoaloqa, interaktiv platformalardagi sinxron va asinxron topshiriqlar, adaptiv o'rganish tizimlari - bularning barchasi gospital pedagogning tashkiliy arsenalining zamonaviy qirrasini tashkil etadi.

Ko'p mutaxassisli hamkorlik va tashkilotchilik madaniyati

Xalqaro inklyuziv ta'lim amaliyotida ko'p mutaxassisli hamkorlik modeli (Multiprofessional Collaboration Model) tobora keng tarqalmoqda. Ushbu model asosida inklyuziv sinfdagi muvaffaqiyat faqat o'qituvchining individual mahoratiga emas, balki bir nechta mutaxassislarning hamkorligiga bog'liq bo'ladi. Friend va Cook (2017) hamkorlikni "ikki yoki undan ortiq teng huquqli shaxsning o'zaro kelishilgan qaror qabul qilish jarayonida ixtiyoriy ishtirok etishi" sifatida ta'riflaydi ^[20].

Pedagogning tashkilotchilik madaniyati bu hamkorlik tizimida ikki muhim funksiyani bajaradi: birinchidan, pedagog jamoaning muvofiqlashtiruvchisi sifatida har bir mutaxassisning vakolat doirasini, mas'uliyatini va hissa qo'shish usulini belgilashga yordam beradi; ikkinchidan, pedagog axborot oqimining markaziy shaxsi sifatida o'quvchiga tegishli ma'lumotlarni zarur mutaxassislarga o'z vaqtida yetkazadi va ularning tavsiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qiladi.

O'zbekiston Respublikasida psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PTPK) tizimi ushbu ko'p mutaxassisli yondashuvning institutsional shakli sifatida faoliyat ko'rsatadi. Biroq amaliyotda pedagogning PTPK bilan hamkorligi ko'pincha rasmiy hujjatlar bilan cheklanib qoladi. Pedagog tashkilotchilik madaniyatining kommunikativ komponenti chinakam hamkorlikni - hujjatlardan tashqarida, kundalik ta'lim amaliyotida - ta'minlash uchun zarur. Bunday haqiqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish pedagoglarni tayyorlash dasturlarining ustuvor vazifasiga aylanishi kerak.

Raqamli texnologiyalar va tashkilotchilik madaniyatining innovatsion qirrasini

Raqamli ta'lim texnologiyalari inklyuziv va gospital ta'limda tashkilotchilik madaniyatining yangi, innovatsion qirrasini shakllantirmoqda. Adaptive learning tizimlari o'quvchining individual o'quv uslubini, xatolarini va yutuqlarini real vaqtda tahlil qilib, pedagogga aniq, ma'lumotga asoslangan tavsiyalar beradi. Bu esa tashkilotchilik madaniyatining boshqaruv komponentini ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making) asosida yangi sifat bosqichiga ko'taradi.

Mishra va Koehler (2006) TPACK modeli asosida zamonaviy pedagog uchun texnologik kompetensiya pedagogik va mazmuniy kompetensiyalardan alohida mavjud bo'la olmaydi ^[21]. Inklyuziv va gospital ta'limda bu uch komponentning uyg'un birligi ayniqsa muhim: to'g'ri texnologiyani (T) tanlash, uning pedagogik qiymatini bilish (P) va o'quv predmeti mazmuniga mosligini anglash (CK) - bularning barchasi pedagogning integral tashkilotchilik madaniyatining bir qismidir.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagog ekran vaqti, kontent filtrlash va bolaning jismoniy holati (ayniqsa gospital sharoitda ko'rish va eshitish qobiliyatining o'zgarishi) bilan bog'liq axloqiy va tibbiy masalalarga ham e'tibor qaratishi lozim. Bu holat tashkilotchilik madaniyatining psixologik sezgirlik va boshqaruv komponentlarining uyg'un ishlashini talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyatini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

*Birinchi*dan, pedagogning tashkilotchilik madaniyati inklyuziv va gospital ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy kasbiy-pedagogik omil bo'lib, u boshqaruv, kommunikativ, metodik, psixologik sezgirlik va reflektiv



komponentlarning organik integratsiyasida namoyon bo'ladi. Har bir komponent o'z-o'zicha yetarli emas - faqat ularning birgalikdagi sinergiyasi samarali inklyuziv amaliyotni yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, Vygotskiy ZBR nazariyasi, Bronfenbrenner ekologik tizimlar modeli, Ainscow inklyuziya indeksi va UDL tamoyillari yaxlit nazariy asos sifatida pedagogning tashkilotchilik madaniyatini bir nechta o'zaro bog'liq darajalarda - individual, muassasa, jamiyat va siyosat – tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, gospital pedagogika tashkilotchilik madaniyatiga qo'shimcha murakkab talablar qo'yadi: tibbiy-pedagogik integratsiya, psixo-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va raqamli uzluksizlik - bu uch strategik yo'nalish gospital pedagogning tashkiliy kompetensiyasining o'ziga xos qirralarini belgilaydi.

To'rtinchidan, TPACK modeli va raqamli texnologiyalar zamonaviy inklyuziv va gospital pedagogning tashkiliy arsenalini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi, ammo bu vositalar texnologik kompetensiya bilan psixologik-pedagogik sezgirlikning uyg'unligini talab etadi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Oliy pedagogika ta'limi muassasalari uchun: bakalavriat va magistratura dasturlariga "Inklyuziv va gospital ta'limda tashkilotchilik madaniyati" alohida modulini kiritish, amaliy mashg'ulotlarda rol o'yinlari, keys-stadi va real inklyuziv muhitda pedagogik amaliyotdan keng foydalanish zarur. Amaliyotdagi pedagoglar uchun: ko'p mutaxassisli hamkorlik ko'nikmalari, raqamli ta'lim texnologiyalari va refleksiv amaliyot bo'yicha muntazam kasbiy rivojlanish tadbirlarini tashkil etish lozim. Davlat ta'lim siyosati uchun: gospital pedagogika mutaxassisligini O'zbekiston ta'lim standartlarida mustaqil mutaxassislik sifatida rasmiylashtirish, ushbu sohaga ixtisoslashgan pedagoglarni tayyorlash dasturini ishlab chiqish zarur. Ilmiy-tadqiqot uchun: inklyuziv va gospital ta'limdagi pedagogning tashkilotchilik madaniyatini empirik usullar - kuzatuv, intervyu, anketa va natijalar tahlili orqali miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash tadqiqotlarini olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori. - Toshkent: Huquqiy ma'lumotlar milliy bazasi, 2020.
2. UNICEF. Every Child Learns: UNICEF Education Strategy 2019-2030. - New York: UNICEF, 2019. - 72 p.
3. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. - 348 b.
4. Muslimov N.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Muharrir, 2015. - 210 b.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O'qituvchi, 2003. - 192 b.
6. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. - Toshkent: Nosirlik yog'dusi, 2008. - 264 b.
7. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. - Paris: UNESCO, 1994. - 50 p.
8. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD), A/RES/61/106. - New York: UN General Assembly, 2006.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / Ed. by M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, E. Souberman. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
10. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. - 330 p.
11. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. 3rd ed. - Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE), 2011. - 114 p.
12. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. - Paris: UNESCO, 2015. - 84 p.
13. Mitchell D. What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies. 2nd ed. - London; New York: Routledge, 2014. - 362 p.
14. Barrera I., Ficara J. Strategic Co-Teaching in Your School: Using the Co-Design Model. - Baltimore: Paul H. Brookes Publishing, 2015. - 218 p.
15. CAST. Universal Design for Learning Guidelines, Version 2.2. - Wakefield, MA: CAST, 2018. URL: <http://udlguidelines.cast.org> (murojaat sanasi: 20.04.2025).
16. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983. - 374 p.
17. European Hospital and Healthcare Federation (HOPE). Hospital Education: A European Perspective. - Brussels: HOPE, 2021. - 46 p.
18. World Health Organization (WHO). The Ottawa Charter for Health Promotion. - Geneva: WHO, 1986.
19. Reimers F., Schleicher A., Saavedra J., Tuominen S. Supporting the Continuation of Teaching and Learning During the COVID-19 Pandemic. Annotated Resources for Online Learning. - Paris: OECD, 2020. - 38 p.
20. Friend M., Cook L. Interactions: Collaboration Skills for School Professionals. 8th ed. - New York: Pearson Education, 2017. - 304 p.
21. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108, No. 6. - P. 1017-1054. DOI: 10.1111/j.1467-9620.2006.00684.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.